



CONTENT AND STRUCTURAL STRUCTURE OF LEGAL CULTURE IN SOCIETY

Abdullo Soliev

Independent researcher of Andijan State

Pedagogical Institute

azizbek.umarov.80@list.ru

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: legal culture, legal consciousness, legal values, legal activity, legal environment, rule of law, civil society.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the concept of legal culture, its place and significance in the life of society, as well as its structural features. The relationship between the main components of legal culture — legal consciousness, legal activity, legal values and the legal environment-is scientifically substantiated. Also covered are social factors affecting the formation and development of legal culture, including the role of legal education, civil society institutions, public administration and media.

JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILMASI

Abdullo Soliev

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

azizbek.umarov.80@list.ru

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy qadriyatlar, huquqiy faoliyat, huquqiy muhit, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy madaniyat tushunchasining nazariy asoslari, uning jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyati, shuningdek, tuzilmaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Huquqiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari — huquqiy ong, huquqiy faoliyat, huquqiy qadriyatlar va huquqiy muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, huquqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi

ijtimoiy omillar, jumladan, huquqiy ta'lim, fuqarolik jamiyati institutlari, davlat boshqaruvi va ommaviy axborot vositalarining roli yoritilgan.

СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Абдулло Солиев

Независимый исследователь

Андижанского государственного педагогического института

azizbek.umarov.80@list.ru

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	правовая культура, правосознание, правовые ценности, правовая деятельность, правовая среда, верховенство закона, гражданское общество.	Аннотация:	данной статье анализируются теоретические основы понятия правовой культуры, ее место и значение в жизни общества, а также структурные особенности. Научно обоснована взаимосвязь основных компонентов правовой культуры - правосознания, правовой деятельности, правовых ценностей и правовой среды. Также освещаются социальные факторы, влияющие на формирование и развитие правовой культуры, в том числе роль правового образования, институтов гражданского общества, государственного управления, средств массовой информации.
------------------------	--	-------------------	--

Kirish. Huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyoti va qonun ustuvorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'p qirrali ijtimoiy hodisadir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi» [1]. Zero, huquqiy madaniyati yuksak jamiyatdagina qonunlarga hurmat, qonuniylik va adolat qaror topadi. Ilmiy manbalarda ham huquqiy madaniyatning demokratik taraqqiyotga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, yuqori huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori ekani qayd etilgan [2].

Huquqiy madaniyat tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda murakkab, ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, uning mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, L.E. Tursunov tadqiqotiga ko'ra "Huquqiy madaniyat haqidagi fikr, qarashlarni umumiyashtirib aytganda, birinchidan, huquqiy madaniyat barcha huquqiy hodisa va institutlar kabi keng ma'noda, insonning dastlabki madaniyatni rivojlantirish, yangi huquqiy qadriyatlarni yaratish, o'zlashtirish

va tarqatish natijalarini aniqlashga imkon beradi; ikkinchidan, huquqiy madaniyat kishilarning bilimlari, huquqiy munosabatlari, huquqiy xulq-atvori va huquqiy ongida namoyon bo'lishi mumkin; uchinchidan, huquqiyshakllari va usullari bilan bog'liq madaniyat shaklidir; to'rtinchidan, huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlar va qarashlarning uyg'unligi, balki ularni almashish, yaratish, saqlash, tarqatish, ishlab chiqish, iste'mol qilish bo'yicha barcha xatti-harakatlardir" [3]. Xususan, huquqiy madaniyatni keng ma'noda huquqiy hayotning barcha jihatlarini qamrab oluvchi tizim sifatida, tor ma'noda esa insonning huquqiy bilimi, ongi, faolligi va xulq-atvori sifatida tushunish mumkin. V.N. Vitman o'z izlanishlarida huquqiy madaniyatning tushunchasi, uning ijtimoiy vazifalari va turlariga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, huquqiy madaniyat shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy darajalarda namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [4]. Shu ma'noda, huquqiy madaniyat nafaqat huquqshunos mutaxassislar yoki davlat xizmatchilari uchun, balki har bir fuqaro uchun dolzarb tushunchadir – chunki qonunlarga rioya etish va o'z huquqlarini amalga oshirish faqat davlat organlarining emas, balki butun jamiyatning mas'uliyatidir. Aksiologik yondashuvga ko'ra huquqiy madaniyat jamiyat tomonidan yaratilgan, insoniyatning huquqiy madaniyati yutuqlari ta'sir qiladigan dinamik tizim sanaladi [5].

Quyida huquqiy madaniyat tushunchasining nazariy asoslari va uning tarkibiy elementlari – huquqiy ong, huquqiy bilimlar, huquqiy faollik va huquqiy xulq-atvor – atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya davrida huquqiy madaniyatning ahamiyati va uning zamonaviy talablar bilan uyg'unligi xususida ham alohida o'rinda fikr yuritiladi.

Huquqiy madaniyat – jamiyatning huquqiy hayotini belgilovchi qadriyatlar, bilimlar va muomalalar tizimidir. Uni nazariy jihatdan tushunib olish uchun avvalo «madaniyat» va «huquq» tushunchalarining o'zaro bog'liqligini anglash lozim. Madaniyat keng ma'noda jamiyatning ma'naviy yutuqlari majmuasi bo'lsa, huquqiy madaniyat shu yutuqlarning huquq sohasidagi ifodasi hisoblanadi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatga bir necha xil ta'riflar berilgan. Masalan, ba'zi manbalarda huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy kompetensiyasi, aholi qatlamlari va siyosiy tashkilotlar o'rtasidagi «huquqiy muomala» madaniyati, jamiyatda qonun ustuvorligining umumiy belgisi va shaxs erkinliklari bilan bog'liq ijtimoiy boylik sifatida ta'riflanadi [6]. Boshqa tadqiqotlarda esa u jamiyatning huquq va qonunlarga nisbatan ongi, bilim darajasi va munosabatini ifodalovchi ko'rsatkich, ya'ni huquqiy ong va bilimlar uyg'unligi hamda huquqqa amal qilish madaniyati sifatida qaraladi [7].

Mamlakatimiz tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholi huquqiy ongi yuksaklashgan sari huquqiy nigilizm, ya'ni qonunlarga befarqlik va ularni inkor etish holatlari kamayadi. Masalan, yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida ularning huquq-tartibotga hurmati ortayotgani kuzatilmoqda. Bugungi global jarayonda yoshlar ongida huquqiy va siyosiy nigilizmning oldini olish uchun ularning huquqiy ongini rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi –

zero, huquqiy ongi shakllangan yosh avlod jamiyatda huquqiy madaniyatni yuqori pogʻonaga koʻtarishga qodirdir. Shu bois, taʼlim-tarbiya jarayonida huquqiy ongni oshirish, huquqqa hurmat ruhini singdirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning maʼnaviy asosini tashkil etadi. U insonni qonunlarga ishonch va hurmat ruhida kamol toptirib, uning huquqiy faolligi va qonuniy xulqini belgilab beradi.

Har qanday shaxsning huquqiy madaniyati darajasi avvalo uning huquqiy savodxonligi va bilimlari bilan oʻlchanadi. Huquqiy bilimlar deganda shaxsning amaldagi qonun va qoidalar toʻgʻrisidagi xabardorligi, ularning mazmun-mohiyatini tushunishi hamda huquqiy mafkuraning asoslarini bilishi nazarda tutiladi. Masalan, fuqaro Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan oʻz huquq va burchlarini, jinoyat va maʼmuriy javobgarlikka oid qoidalarni, mulkiy yoki mehnat huquqlarini va boshqa sohalardagi qonunlar normalarini bilsa, u huquqiy bilimga ega sanaladi.

Huquqiy madaniyatni oshirishda huquqiy taʼlim va targʻibotning oʻrni beqiyosdir. Maktablardan boshlab oliy oʻquv yurtlarigacha huquqshunoslik asoslarini oʻqitish, aholi oʻrtasida huquqiy maʼrifat ishlarini tizimli yoʻlga qoʻyish orqali jamiyatning umumiy huquqiy bilimi yuksaladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali huquqiy tushuntirish ishlarini kuchaytirish ham aholi huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Taʼkidlash joizki, huquqshunos olimlar huquqiy savodxonlikni huquqiy madaniyat tizimiga kiritishadi. Chunki huquqiy bilim va savodxonlik mazmunan huquqiy madaniyatga oid hodisa boʻlib, pirovardida ularning darajasi ham huquqiy madaniyat mezonlari bilan baholanadi [8]. Demak, huquqiy bilimlar huquqiy madaniyatning ajralmas qismi boʻlib, u qanchalik yuqori boʻlsa, jamiyatning huquqiy madaniyati ham shunchalik yuksak boʻladi.

Huquqiy faollik shaxsning huquqiy hayotdagi faol ishtiroki, oʻz huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdagi tashabbuskorligi hamda qonunbuzarliklarga nisbatan murosasizligi bilan xarakterlanadi. Yuksak huquqiy madaniyatli kishi faqat qonunlarga itoatkor boʻlib qolmay, balki huquqiy jarayonlarda faol qatnashadi: oʻz huquqlarini talab qila oladi, qurollangan huquqiy bilimlari asosida huquqbuzarliklarga qarshi kurashadi, adolatsizlikka befarq tomoshabin boʻlmaydi.

Jamiyatda fuqarolarning huquqiy faolligi ortishi demokratiyaning mustahkamlanishiga turtki boʻladi. Masalan, saylov jarayonlarida, jamoatchilik nazoratida yoki huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda fuqarolarning faol ishtiroki yuksak huquqiy madaniyat belgisidir. R. Surobova qayd etganidek, fuqarolar huquqiy ongi va faolligi yuksak boʻlsa, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanib, demokratiyaga erishish jarayoni tezlashadi [9]. Shu bois, mamlakatimizda aholini huquqiy jarayonlarga jalb etish, ularning ichki faolligini tashqi amaliy faollikka aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Avvalo, raqamli texnologiyalar huquqiy ta'lim va ma'rifatning yangi formatlarini yaratib berdi. Agar avval huquqiy ma'rifiy ishlar asosan an'anaviy leksiylar, gazeta va jurnallar, televidenie orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugun internet va mobil ilovalar orqali interaktiv, tezkor va ommaviy huquqiy bilim tarqatish imkoni paydo bo'ldi. Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan yaratilgan maxsus veb-saytlar, masofaviy kurslar, virtual kitobxonalar huquqiy bilimlarni har kim uchun ochiq va qo'llanishli qildi. Bu esa aholining huquqiy savodxonligini oshirishda keng qamrovli imkoniyat yaratmoqda. Davlat xizmatlari yagona portali (my.gov.uz), Lex.uz qonunchilik bazasi, elektron auksion va sud tizimlari huquqiy axborot va xizmatlarni aholining kundalik hayotiga kiritib, huquqiy madaniyatning amaldagi ko'rinishini shakllantirmoqda. Telegram, YouTube, Instagram kabi maydonlarda huquqiy maslahat, qonunchilik yangiliklari va huquqiy targ'ibot materiallari tarqatilishi yoshlar orasida huquqiy bilimlarni tez va oson o'zlashtirishga xizmat qilmoqda. Kiberhuquqiy ma'rifat axborot texnologiyalari orqali huquqbuzarlikning yangi ko'rinishlari – kiberjinoyatlar, internetdagi qonunbuzar axborotlar, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash – yoshlar orasida maxsus kiberhuquqiy madaniyat shakllantirish zaruratini tug'dirmoqda. Shu tariqa, raqamli muhit huquqiy madaniyatni oshirishning an'anaviy usullariga zamonaviy va samarali yo'llarni qo'shdi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya huquqiy madaniyatga nisbatan yangi talablarni ham ilgari surmoqda. Endi huquqiy madaniyat deganda faqat qonunlarni bilish va hurmat qilish emas, balki raqamli maydondagi huquqiy kompetensiyalarga ega bo'lish ham nazarda tutiladi. Raqamli huquqiy savodxonlik: har bir fuqaro elektron raqamli imzo, elektron murojaat tizimi, onlayn shartnomalar va petitsiyalar jarayonini to'g'ri ang'lay olishi shart. Bu jarayonda noto'g'ri yo'l tutish nafaqat shaxsning, balki butun jamiyatning huquqiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kiberxavfsizlik va huquqiy himoya: raqamli madaniyatning ajralmas qismi sifatida shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, internetdagi faoliyatda huquqiy xavfsizlikni ta'minlash, kiberjinoyatlarga qarshi huquqiy immunitetga ega bo'lish talabi ortmoqda. Elektron demokratiyada ishtirok: zamonaviy huquqiy madaniyatning yangi talabi – fuqarolarning elektron hukumat va elektron demokratiya jarayonlarida faol qatnashishi. Masalan, onlayn petitsiyalar, virtual jamoatchilik muhokamalarida ishtirok etish, davlat organlariga elektron murojaat qilish kabi jarayonlar endi fuqarolarning huquqiy madaniyati ko'rsatkichiga aylandi. Xalqaro raqamli huquq qoidalari: raqamli munosabatlar milliy chegaradan chiqib ketgani uchun fuqarolar xalqaro huquqiy normalardan ham xabardor bo'lishi lozim. Masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR qoidalari yoki xalqaro kiberxavfsizlik kelishuvlari milliy foydalanuvchilarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu talablar huquqiy madaniyatning faqat ichki mazmun emas, balki tashqi ko'rinishini ham tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda yuksak huquqiy madaniyatli shaxs deganda qonunlarni bilish va ularga

itoat etish bilan birga raqamli huquqiy muhitda ham ongli va mas'uliyatli harakat qila oladigan fuqaro nazarda tutiladi.

Raqamli transformatsiya huquqiy madaniyatga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomondan, u huquqiy ma'rifat va xizmatlarning yangi, samarali yo'llarini yaratmoqda; ikkinchi tomondan, huquqiy madaniyatga nisbatan yangi talablarni qo'yimoqda. Bu esa huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida fuqarolardan ham, davlat institutlaridan ham yangi darajadagi mas'uliyat va tayyorlikni talab qiladi. Yuksak huquqiy madaniyat endi raqamli huquqiy savodxonlik bilan uyg'un bo'lmasa, u to'liq qiymat kasb etmaydi. Shu bois, zamonaviy jamiyat uchun huquqiy madaniyat va raqamli madaniyatning uyg'unligi strategik zaruratga aylandi.

Zamonaviy talablar nuqtai nazaridan, huquqiy madaniyat nafaqat an'anaviy huquqiy qadriyatlarni o'z ichiga olishi, balki davr yangiliklariga mos ravishda boyib borishi lozim. Bugungi kunda fuqarolarning huquqiy madaniyati faqat qonunlarni bilish bilan emas, balki ularning interaktiv davlat xizmatlaridan foydalana olish ko'nikmalari, elektron demokratiya jarayonlarida ishtiroki, onlayn petitsiya va murojaatlar orqali huquqlarini talab qila olishi bilan ham o'lchanadi. Shu ma'noda, yuksak huquqiy madaniyat va zamonaviy raqamli kompetensiyalar uyg'unligi huquqiy davlat barpo etishning muhim shartiga aylandi. Yangi davr huquqiy madaniyati barcha uchun birdek imkoniyat va mas'uliyat yuklaydi: har bir fuqaro onlayn maydonda o'zining huquqiy identifikatsiyasi va xavfsizligiga e'tibor qaratishi, virtual munosabatlarda ham qonunlarga rioya etishi talab etiladi. Shunday ekan, raqamli transformatsiya sharoitida huquqiy madaniyatni yuksaltirish bu – fuqarolarning ham, davlatning ham ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyat – serqirra, tuzilmaviy jihatdan murakkab tushuncha bo'lib, u huquqqa oid bilimlar, ong, faollik va xulq-atvor kabi bir-biri bilan uzviy bog'liq elementlarni qamrab oladi. Yuksak huquqiy madaniyat jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat va qonuniylikni ta'minlashning muhim omili sanaladi. Shu bois, mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining huquqiy ongini oshirish, huquqiy ta'lim sifati va qamrovini kengaytirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullarini joriy etish orqali fuqarolarning huquqiy savodxonligi muntazam ravishda yuksaltirib borilmoqda.

Huquqiy madaniyatning har bir tarkibiy qismi – xoh u huquqiy ong bo'lsin, xoh bilim yoki faollik – o'z o'rnida huquqiy davlat barpo etish jarayonida strategik ahamiyatga ega. Fuqarolarning huquqiy ongi yuksak bo'lsa, ular qonunlarga ishonadi va hurmat qiladi; huquqiy bilimlari yetarli bo'lsa, o'z haq-huquqlarini taniydi va himoya qila oladi; huquqiy faolligi ortadigan bo'lsa, jamiyatda adolat uchun kurashishga tayyor turadi; huquqiy xulqi namuna bo'lsa, qonuniylik muhiti mustahkamlanadi. Demak, huquqiy madaniyatni rivojlantirish – barqaror va

adolatli jamiyat asosini mustahkamlash demakdir. Shuningdek, bugungi raqamli davrda huquqiy madaniyat yangi mazmun bilan boyimoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivoji fuqarolarning huquqiy axborot madaniyati va raqamli huquqiy savodxonligini shakllantirishni taqozo etmoqda. Zero, hayotning virtuallashuvi sharoitida ham qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish kabi ezgu maqsadlar faqat yuksak huquqiy madaniyat orqali amalga oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida: PF-5618-son Farmon, 09.01.2019.
2. Суробова Р. (2022). Хукукий маданият – демократик тараккиёт пойдевори // Общество и инновации, 3(10/S), 166–173.
3. Турсунов Л. Ёшларда хукукий ва сиёсий маданиятни ривожлантиришнинг ижтимоийфалсафий муаммолари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2020 й. – Б. 11-12
4. Витман В.Н. (2019). Правовая культура: понятие, функции и виды // Modern Science, №4–2, С. 214–217.
5. Низаева Ю.М. Правовая культура в современном обществе. В сборнике: Современные проблемы и перспективные направления инновационного развития науки. Сборник статей международной научнопрактической конференции: в 2 частях. 2017. С. 190-191.
6. Турсунов Л. Ёшларда хукукий ва сиёсий маданиятни ривожлантиришнинг ижтимоийфалсафий муаммолари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2020 й. – Б. 11-12
7. Хатамов Ф.Ф. (2022). Инсон ҳуқуқлари – Янги Ўзбекистоннинг сиёсий ислохотлари асоси: Монография. – Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти. – 164 б.
8. Хатамов Ф.Ф. (2022). Инсон ҳуқуқлари – Янги Ўзбекистоннинг сиёсий ислохотлари асоси: Монография. – Самарқанд: Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти. – 164 б.
9. Суробова Р. (2022). Хукукий маданият – демократик тараккиёт пойдевори // Общество и инновации, 3(10/S), 166–173.